

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Boshqaruvining
2024-yil “25” martdagi
62 -sonli qaroriga
Ilova



“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Kuzatuv kengashining
2024-yil “27” martdagi
7 - sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “28” may da
62 -son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashi
qo‘mtalari to‘g‘risida Nizom

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME‘YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashi
qo‘mitalari to‘g‘risida Nizom
(yangi tahrirda)

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi Farmoni, “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida” Nizom (ro‘yxat raqami: 3254, 2020-yil, 30-iyun), “Tijorat banklari ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” Nizom (ro‘yxat raqami: 3302, 2021-yil 7-may), “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 3427, 2023-yil 18-aprel), “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel), “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” (ro‘yxat raqami: 2886, 2017-yil 23-may), “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustaviga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”) Kuzatuv kengashi qoshidagi qo‘mitalar (keyingi o‘rinlarda – “Qo‘mitalar”) ish faoliyatini tashkil etish tartibi, maqsadi, vazifalari, vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi.

3. Ushbu Qo‘mitalar o‘z vakolatlari doirasida samarali ish tashkil etish, masalalarni ko‘rib chiqish va “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashiga (keyingi o‘rinlarda – Kuzatuv kengashi) o‘z tavsiyalarini berish bilan shug‘ullanadi.

4. Qo‘mitalar Kuzatuv kengashining doimiy kollegial maslahat organi hisoblanadi.

5. Har bir tarkibiy Qo‘mita tomonidan Kuzatuv kengashiga kiritiladigan masalalar dastlab ushbu Qo‘mitada muhokama qilinadi va undan so‘ng Kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilish kun tartibiga kiritiladi.

6. Qo‘mitalar tomonidan Kuzatuv kengashiga kiritiladigan masalalar dastlab har bir tegishli qo‘mitada muhokama qilinadi va undan keyin kiritiladi.

7. Qo‘mitalar alohida maxsus professional bilim va tajribani talab qiladigan masalalarni hal qilish uchun mustaqil konsultant va ekspertlar, shuningdek, bank tarkibiy tuzilmalari xodimlari va boshqa kollegial boshqaruv organlardan mas‘ul xodimlarni jalb etish huquqiga ega.

8. Ushbu nizomni quyidagi hollarda qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Qo'mitalar faoliyatiga taaluqli bo'lgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda o'zgarishlar bo'lganda;

bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgarganda;

bankning rivojlanish strategiyasi o'zgarganda;

Ichki audit tavsiyalarini bajarish maqsadida va boshqa hollarda.

9. Bank Kuzatuv kengashi qoshida quyidagi Qo'mitalar tashkil etilgan:

Risklarni nazorat qilish qo'mitasi;

Audit qo'mitasi;

Tayinlovlar va mehnatga haq to'lash qo'mitasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi.

10. Mazkur Qo'mitalar o'z faoliyatini bevosita Kuzatuv kengashiga hisobdorlik tamoyillari asosida hamda mazkur Nizomga muvofiq o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

II. Risklarni nazorat qilish qo'mitasi

11. Risklarni nazorat qilish qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – "Risk qo'mitasi")ni tashkil etishdan maqsad – Kuzatuv kengashining bank risklarini nazorat qilishdagi vazifalariga ko'maklashish, risklarni boshqarish tizimini yaratish va uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash hamda risklarni har tomonlama o'rganib borishdan iborat.

12. Risk qo'mitasining asosiy vazifasi – risklarni boshqarish bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalarni tayyorlash va kiritish, o'z vakolati doirasida risklarni boshqarish jarayonida alohida masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish.

13. Risk qo'mitasining asosiy vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023-yil 18-aprelda 3427-son raqam bilan ro'yxatga olingan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizom talablarining bajarilishini ta'minlash;

bank faoliyatida yuzaga keluvchi risklar, shu jumladan kredit, likvidlik, valyuta, foiz, operatsion hamda boshqa risklarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish hamda bank moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganib borish, ularning hisobini yuritish

14. Risk qo'mitasi o'z faoliyatida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

risklarni boshqarish masalalarini ko'rib chiqish va ichki hujjatlarni ishlab chiqilishini nazorat qilish. Jumladan:

risklarni boshqarish bo'yicha siyosatlar;

risklarni boshqarish va komplayens nazorati hisobotlari;

bank risk-appetitiga amal qilinishini nazorat qilish, risk-appetit signal va limitlarini ishlab chiqilishi;

bank risklari strukturasi bo'yicha kelgusi rejalarni ma'qullanishi;

bank risklari bo'yicha stress-test ssenariylarini ma'qullash va stress-test natijalarini ko'rib chiqish;

Risk Bosh direktori lavozimga tayinlash yoki lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

Risk menejment departamenti direktorini ish haqi va rag'batlantirish miqdorini belgilash;

alohida muhim bo'lgan risk turlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish va o'z vakolati doirasida qarorlar qabul qilish;

bank tomonidan qabul qilinayotgan tavakkalchiliklar monitoringi natijalaridan kelib chiqib, bank moliyaviy holatiga ta'sirini nazorat qilish;

risklarni boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

risklarni boshqarish masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashining boshqa qo'mitalari bilan o'zaro hamkorlik qilish.

15. Risk qo'mitasi faoliyati bo'yicha Kuzatuv kengashi oldida yiliga kamida bir marta hisobot beradi.

16. Risk qo'mitasi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Risk qo'mitasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari va mas'ul xodimlaridan zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni talab qilish va olish. Bunda, ma'lumot va hujjatlar Risk qo'mitasi a'zolari tomonidan yozma so'rov asosida Risk qo'mitasi kotibi orqali taqdim etiladi;

zarur bo'lganda Risk qo'mitasining yig'ilishlariga bank Boshqaruvi a'zolari, Ichki audit xizmati xodimlari va boshqa xodimlarni hamda mustaqil ekspertlarni taklif etish;

Risk qo'mitasi vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha qaror qabul qilish;

alohida masalalar bo'yicha vaqtinchalik ishchi guruhlar tashkil etish;

Risk qo'mitasi faoliyatiga bog'liq masalalarni qo'mita yig'ilishiga kiritish;

Risk qo'mitasida ko'rilayotgan masalalar bo'yicha o'z fikr mulohazasini bildirish, taklif va tavsiyalar berish;

Risk qo'mitasi yig'ilishida bevosita ishtirok etish imkoni bo'lmaganda masofaviy ya'ni maxsus aloqa tizimlari orqali onlayn shaklda qatnashish yoki ko'rilayotgan masalalar bo'yicha yozma ravishda o'z fikr mulohazalarini yuborish;

Risk qo'mitasi yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha izoh va tushuntirishlar berish;

tarkibiy bo'linmalarning tahliliy ma'lumotlari va hisobotlarini ko'rib chiqish orqali berilgan vakolatlardan foydalanilishini nazorat qilish.

17. Risk qo'mitasi a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida o'z vaqtida xabar berish va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki yuzaga keltiradigan harakatlardan tiyilish;

maxfiy ma'lumotlar (shu jumladan, bank siri, tijorat sirlari)ni tashkil etuvchi ma'lumotlarni o'z shaxsiy manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab oshkor qilmaslik yoki foydalanmaslik, shuningdek Risk qo'mitasi faoliyati bilan bog'liq unga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

Risk qo'mitasi yig'ilishiga kiritilgan hujjatlarni o'rganish va kun tartibidagi har bir masala bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

Risk qo'mitasi raisi tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajarish;

Risk qo'mitasi faoliyati natijalari bo'yicha Kuzatuv kengashiga yiliga kamida bir

marta hisobot berish;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioya etish.

18. Risk qo'mitasi tarkibi Kuzatuv kengashi qaroriga asosan tasdiqlanadi va Risk qo'mitasi a'zolari Kuzatuv Kengashi a'zolari ichidan saylanib, kamida 3 (uchta) a'zodan iborat bo'ladi.

19. Risk qo'mitasi a'zolarining asosiy qismi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolaridan iborat bo'lishi kerak.

20. Risk qo'mitasi raisi va a'zolari Kuzatuv kengash qaroriga ko'ra bir necha marotaba qayta saylanishi mumkin.

21. Risk qo'mitasi a'zolarini saylanishida ularning qo'mita faoliyati bo'yicha ish tajribasi va bilim ko'nikmalariga ega ekanligi e'tiborga olinishi shart.

22. Risk qo'mitasi a'zolarining vakolatlari Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylanishi bilan bir vaqtda tugatiladi. Kuzatuv kengashi qo'mitaning bir yoki bir necha a'zolarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatishi mumkin.

23. Risk qo'mitasi raisi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi shart. Qo'mita raisi bir vaqtning o'zida Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki qo'mitalardan birining raisi bo'lolmaydi.

24. Risk qo'mitasi yig'ilishlarini tashkil etish va Qo'mita a'zolari talabiga ko'ra zaruriy ma'lumotlarni taqdim etish uning kotibi tomonidan amalga oshiriladi. Kotib Qo'mita raisi tomonidan tayinlanadi.

25. Risk qo'mitasi raisining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Risk qo'mitasiga rahbarlik qilish, Qo'mita faoliyati samaradorligi va xolisligini ta'minlash;

Risk qo'mitasi ishini tashkil qiladi, Qo'mita yig'ilishlarini chaqiradi va raislik qiladi, majlis bayonlari yuritilishini tashkil qiladi, majlis kun tartibini belgilaydi;

Risk qo'mitasi a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va Qo'mita qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi;

bank Kuzatuv kengashining ish rejasi, Risk qo'mitasi a'zolari va bankning tegishli tarkibiy tuzilmalari tashabbusi bilan kiritilgan takliflar asosida Qo'mitaning ish rejasini tasdiqlaydi;

Kuzatuv kengashiga Risk qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobotlarni taqdim etadi.

26. Risk qo'mitasi majlislari mazkur Nizomga va Qo'mita tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq o'tkaziladi. Risk qo'mitasi majlislari Kuzatuv kengashining talabiga ko'ra va Qo'mita raisi yoki uning a'zolari tashabbusi bilan o'tkazilishi mumkin.

27. Risk qo'mitasi raisi Qo'mitaning navbatdagi yig'ilishini chaqirish, uning o'tkazilish sanasi va joyini, kun tartibini belgilaydi hamda Qo'mita yig'ilishida bank Boshqaruvi a'zolari, tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari yoki bankning ayrim xodimlari ishtirok etishini talab qilishi mumkin.

28. Risk qo'mitasi kotibi, raisi, a'zolari va bankning tarkibiy bo'linmalari

rahbarlarining takliflari asosida har bir majlisining kun tartibini tuzadi, shuningdek zarur bo'lgan masalalarni tanlaydi. Qo'mita kotibi ish yuritilishida mas'ul hamda o'z ishida mazkur Nizom va kollegial organlar faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga amal qiladi. Kun tartibi va axborot materiallarini tanlashda Risk qo'mitasi raisi bilan kelishiladi.

29. Kun tartibi va materiallar majlis o'tkazilishidan kamida uch kun oldin Risk qo'mitasi a'zolariga yuboriladi. Kun tartibi va materiallar to'plami Qo'mita a'zosi hisoblanmagan Kuzatuv kengashi a'zolariga ham yuborilishi mumkin.

30. Risk qo'mitasi a'zolariga taqdim etilgan barcha hujjatlar bilan manfaatdor tomonlar oldindan xabardor qilingan bo'lishi kerak. Qo'mita qaror qabul qilishi uchun hujjatlar tegishli tavsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Risk qo'mitasi raisi o'z fikriga ko'ra talab qilinadigan standartlarga javob bermaydigan hujjatlarni rad etishga haqli.

31. Risk qo'mitasi kotibi yig'ilish boshlanishidan oldin Qo'mita majlisiga taklif etilgan mansabdor shaxslarni majlisda ishtirok etish zarurligi to'g'risida xabardor qilishi shart.

32. Risk qo'mitasi majlislari odatda bevosita Qo'mita raisi va a'zolari bir joyga yig'ilgan holatda o'tkaziladi. Qo'mita majlisida shaxsan ishtirok eta olmagan a'zolarga majlisda masofadan turib maxsus aloqa vositalari yordamida onlayn shaklda qatnashish imkoniyati beriladi.

33. Risk qo'mita yig'ilishi Qo'mita raisi va a'zolarining taklifiga ko'ra maxsus aloqa vositalari (zoom, teams va boshqalar) yordamida onlayn shaklda ham o'tkazilishi mumkin.

34. Risk qo'mita yiliga kamida to'rt marta yig'ilish o'tkazishi lozim. Ayrim qarorlar Qo'mita tomonidan sirtidan ovoz berish tarzida o'tkaziladigan majlislarda (Risk qo'mitasi a'zolari tomonidan ovoz berish byulletenlarini to'ldirish va/yoki yig'ilish bayonini imzolash orqali) qabul qilinishi mumkin.

35. Zarur bo'lganda Risk qo'mitasi majlislarida Qo'mita a'zosi bo'lmagan boshqa shaxslar shu jumladan bankning auditorlik tashkiloti vakillari, taklif etilgan ijro etuvchi organlarining a'zolari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari taklif qilinishi mumkin. Taklif etilgan shaxslar Qo'mita qarorlarini qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emaslar.

36. Risk qo'mitasi yig'ilishida ko'rilayotgan masalalar muhokamasi jarayonida maxfiy ma'lumotlar bo'lsa, Qo'mita a'zolari va majlisga taklif etilgan shaxslar ushbu ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlashi shart. Aks holda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

37. Risk qo'mitasi a'zolari va yig'ilish ishtirokchilariga zarur materiallarni yuborish Qo'mita kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

38. Risk qo'mitasi majlislari Qo'mita a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi (kvorumga ega). Qo'mita majlislariga kelmagan a'zolarining yozma fikrlarining mavjudligi, ular tomonidan imzolanganligi va majlislar o'tkazilishidan oldin taqdim etilganligi ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha kvorum va ovoz berish natijalarini aniqlashda hisobga olinadi.

39. Risk qo'mita qarorlari uning majlislarida qatnashgan a'zolarining ko'pchilik ovozi

bilan qabul qilinadi. Qo'mita qarorlari tavsiya shaklida bo'ladi.

40. Risk qo'mitasi kotibi Qo'mita majlis bayonlarini tuzadi. Qo'mita majlis bayonlari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

yig'ilish sanasi;

yig'ilish o'tkazish shakli (onlayn/oflayn);

Qo'mita majlisida qatnashayotgan a'zolari to'g'risida;

kvorum borligi;

Qo'mita majlisiga taklif etilgan shaxslar to'g'risida;

har bir masala bo'yicha kun tartibi va masalaning mazmuni to'g'risida;

mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi sababli qo'mita a'zolarining qarorlar qabul qilishda ishtirok etishdan bosh tortganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

Qo'mita a'zolarining taklif va mulohazalari;

ma'ruzachi (savol tashabbuskori) haqida;

Qo'mita tomonidan berilgan tavsiyalar va qabul qilingan qarorlar;

alohida fikrlar (agar mavjud bo'lsa).

41. Risk qo'mitasi majlis bayonnomalarida ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan masalalar, shuningdek, ular bo'yicha qaror qabul qilinmagan masalalar ro'yxati va ma'lumotlari ham ko'rsatiladi.

42. Risk qo'mitasi kotibi yig'ilish bayonnomalari va Qo'mita qarorlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi va saqlanishi uchun javobgardir. Bayonnomalar bir nusxada tuziladi. Qo'mita kotibi Qo'mita majlisi qarorlari bo'yicha tegishli tarkibiy bo'linmalar uchun bayonnomalar va ko'rsatmalardan ko'chirmalarni tayyorlaydi va ularga yuboradi.

43. Risk qo'mitasi kotibi Qo'mita yig'ilishi o'tkazilganidan so'ng 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay uning yig'ilish bayonini rasmiylashtiradi. Qo'mita yig'ilish bayoni Qo'mita raisi, a'zolari va kotib tomonidan imzolanadi.

44. Kuzatuv kengashi a'zolari Qo'mitaning istalgan materiallari va majlis bayonlari bilan tanishish huquqiga ega.

45. Risk qo'mitasi a'zolaridan biri qabul qilingan qarorga qarshi ovoz bersa, uning sabablarini yozma ravishda Qo'mitaga taqdim etadi.

III. Audit qo'mitasi

46. Audit qo'mitasi Kuzatuv kengashi a'zolaridan uch yoki undan ortiq kishidan iborat tarkibda tashkil etiladi. Qo'mita tarkibiga Kuzatuv kengashning kamida bir nafar mustaqil a'zosi kiritilishi shart.

47. Audit qo'mitasi a'zolari Kuzatuv kengashi raisining tavsiyasi asosida Kuzatuv kengashi a'zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Audit qo'mitasi raisi Qo'mita a'zolari orasidan Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Audit qo'mitasi raisi Kuzatuv kengashi raisi bo'lmazligi lozim. Qo'mita a'zolari bankka aloqador shaxslar bo'lmazligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashdagi a'zoligi mustasno.

48. Audit qo'mita a'zolari oliy ma'lumotga, audit xizmati maqsadlari va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo'lishi lozim. Qo'mitaning kamida bitta a'zosi audit, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo'yicha kamida 5 (besh) yillik tajribaga ega bo'lishi kerak.

49. Audit qo'mitasi a'zosi bir vaqtning o'zida bank auditorlik tashkilotining (tashqi auditor) xodimi bo'lmasligi kerak. Shuningdek, Qo'mita a'zosining yaqin qarindoshlari bank auditorlik tashkilotining xodimi bo'lmasligi kerak.

50. Audit qo'mitasi a'zolari o'rtasidagi funksiyalar taqsimlanishi Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi.

51. Audit qo'mitasi tarkibiga saylangan Kuzatuv kengashi a'zolari cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

52. Bankning Ichki audit xizmati o'z faoliyatida Qo'mitaga hisobdordir.

53. Audit qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

moliyaviy hisobot va Ichki audit siyosatini ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayonida ishtirok etish;

nazoratga oid, moliyaviy va boshqa hisobotlarning taqdim etilishini, to'liqligini, ishonchliligini nazorat qilish;

o'z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan bankning Kuzatuv kengashi yig'ilishlariga ma'lumotlar tayyorlash va Kuzatuv kengashga hisobotlar taqdim etish;

bankning ichki va tashqi auditorlar bilan o'zaro aloqasini nazorat qilib borish;

Ichki audit xizmatining choraklik hisobotlarini o'rganib chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

har chorakda kamida bir marta Ichki audit xizmati rahbari bilan uchrashuv o'tkazib, Ichki audit xizmati faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilish;

bankning Ichki nazorat tizimi va Ichki auditi faoliyati samaradorligi va monandligini ta'minlash uchun ularni baholash, ichki audit tekshiruvlari rejasi va ularning davriyligini ko'rib chiqish, ichki audit xizmati rahbari o'z vazifa va majburiyatlarini qay darajada amalga oshirayotganligini baholashda ishtirok etish va o'z fikrlarini bildirish;

tashqi auditor takliflarini baholashda Kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish, tashqi auditorni tanlashda Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;


tashqi auditorlarning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzilishi (bekor qilinishi) to'g'risida Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

tashqi auditorlar uchun texnik vazifalarni ishlab chiqishda Kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish;

ichki va tashqi audit hisobotlarini qabul qilib olish hamda ularda va boshqa nazoratni amalga oshiruvchi bo'linmalar tomonidan aniqlangan qonunchilik hujjatlari, bankning siyosatlari va ichki hujjatlariga nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bank Boshqaruvi tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

tashqi auditorlik hisoboti va xulosalarni ko'rib chiqish va ularni Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

tashqi auditorlar faoliyati qoniqarsiz deb baholangan taqdirda, ularni o'zgartirish yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;



bank faoliyatining shaffofligi va ma'lumotlarning oshkor qilinishi yetarli darajada va aniq ekanligini ko'rib chiqish;

o'z faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlash;

Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

54. Audit qo'mitasi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini nazorat qilish va tavakkalchilikning samaradorligini ta'minlash uchun:

Ichki auditning yillik ish rejasini tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritish;

auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi;

Kuzatuv kengashi oldida audit masalalari bo'yicha hisobot beradi.

55. Audit qo'mitasining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Bosh auditor tomonidan ishlab chiqilgan Ichki audit xizmatining yillik rejasini va budjetini tegishli yilning 1-yanvariga qadar ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashi qarori bilan berilgan vakolat asosida tasdiqlash, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Kuzatuv kengashi qarori bilan berilgan vakolat asosida Ichki audit xizmati xodimlarini (Bosh auditor bundan mustasno) lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;

Kuzatuv kengashi qarori bilan berilgan vakolat asosida Ichki audit xizmati xodimlari, shu jumladan, Bosh auditorning ish haqi miqdorini belgilash yoki ularni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish masalasini hal qilish;

Bosh auditor bilan birgalikda davriy ravishda (yilda kamida bir marta) Ichki audit xizmatining har bir xodimini uning axborotni tanlash, tekshiruv o'tkazish va xulosalarni tayyorlash salohiyatidan kelib chiqib kasbiy mahorat darajasini baholab borish.

56. Audit qo'mitasining majlisi Qo'mita raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Qo'mita a'zolarining talabiga ko'ra, shuningdek, bank Ichki audit xizmati rahbarining yozma talabiga ko'ra chaqiriladi.

57. Audit qo'mitasi har chorak yakuniga ko'ra, zarur bo'lganda har oyda, Qo'mita a'zolarining shaxsan ishtirokida yoki boshqa aloqa tarmoqlaridan foydalanish yo'li bilan o'z majlislarini o'tkazib turishi lozim. Qo'mita bankning ijroiya organi va boshqa shaxslarni Qo'mita majlislariga qatnashish uchun taklif qilishi, shuningdek zarur bo'lganda ulardan axborot talab qilishi mumkin.

58. Audit qo'mitasi a'zolari muayyan masalaning kechiktirilmay hal etilishini talab qiladigan qoida buzilishlar aniqlangan taqdirda Qo'mitaning shoshilinch majlisini chaqirilishini talab qilishlari mumkin.

59. Audit qo'mitasi raisi Qo'mita majlisidagi barcha ishtirokchilarga uni lozim darajada o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va unda olib chiqilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi.

60. Audit qo'mitasi majlisida uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda Qo'mita raisi ishtirok etishi shart.

60. Audit qo'mitasi majlisida qarorlar majlis ishtirokchilarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

61. Audit qo'mitasi majlisida masalalar ovozga qo'yilayotganda Qo'mitaning har bir

a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Ovozlar teng kelgan taqdirda, Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qo'mita qaroriga rozilik bildirmagan a'zosi o'zining majburiy tartibda majlis bayonnomasiga ilova qilinadigan alohida fikrini qayd etib qo'yish va uni Kuzatuv kengashi e'tiboriga havola qilish huquqiga ega.

62. Audit qo'mitasi qarori Qo'mita majlisining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Majlis bayonnomasida majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy, majlisda hozir bo'lgan (shu jumladan masofaviy tarzda qatnashayotgan) shaxslar, majlisning kun tartibi, ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ovoz berish yakunlari, qabul qilingan qarorlar (tavsiyalar) ko'rsatiladi. Bayonnoma Qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va ovoz berishda ishtirok etgan Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi.

63. Audit qo'mitasi majlislariga kotiblik qilish vazifasini bank Ichki audit xizmatining rahbari bajaradi.

64. Audit qo'mitasi raisi:

Qo'mitaning ishini tashkil etadi;

Qo'mita majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

Qo'mita majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;

bank ichki me'yoriy hujjatlari va mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

65. Audit qo'mitasi kotibi:

Qo'mita majlislari bayonnomalarini yuritadi, rasmiylashtiradi va saqlanishini ta'minlaydi;

Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun kun tartibidagi masalalar bo'yicha materiallarni tayyorlaydi va taqdim qiladi;

Qo'mita qarorlarini, xulosalarini va bayonnomalarini oluvchilargacha yetkazadi.

66. Audit qo'mitasi vakolati doirasidagi barcha qarorlar qabul qilingan kundan boshlab, bank ijroiya organi va boshqa mansabdor shaxslari uchun ijro etilishi majburiydir. Ushbu qarorlarda ko'rsatib o'tilgan mansabdor shaxslar qarorning o'z vaqtida hamda qaror ijrosiga mos ravishda bajarilishiga shaxsan javobgardirlar. Qo'mita qarorlari ijrosini nazorat qilish Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi.

67. Bosh auditor, bank Ichki audit xizmati xodimlari Audit qo'mitasining majlislarida ovoz berish huquqsiz ishtirok etishlari mumkin. Bosh auditor Ichki audit xizmatiga yuklatilgan masalalar bo'yicha Qo'mita ning ishchi guruhi hisoblanadi.

68. Audit qo'mitasi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

bank ijro organi a'zolari va bankning boshqa mansabdor shaxslaridan o'z faoliyati uchun kerakli barcha hujjatlarni va materiallarni taqdim etishni talab qilish;

Auditorlik tashkiloti va Ichki audit xizmatidan hujjatlarni va materiallarni so'rab olish va ulardan foydalanish;

agar bankka jiddiy moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan yoki yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qoida buzilishlar aniqlansa, ijroiya organi majlisi chaqirilishini talab qilish;

aybdor xodimlarni intizomiy, mulkiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish masalalarini rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;

bankning tarkibiy bo'linmalari xodimlari, shu jumladan rahbarlaridan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha izohlar talab qilish;

bankning dastlabki buxgalteriya, moliya va boshqa hujjatlaridan foydalanish;

Qo'mita vakolatlari doirasidagi qaror va topshiriqlarni bajarish, Qo'mita majlislarida ishtirok etish maqsadida zarur bo'lgan holatlarda Qo'mita raisi qarori bilan bankning rahbar shaxslarini, Kuzatuv kengashining boshqa a'zolarini davriy yoki muntazam ravishda taklif etish;

Qo'mita vakolatlariga tegishli bo'lgan masala bo'yicha o'z tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashining boshqa qo'mitalarining fikrini talab qilib olish;

Qo'mita majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan so'zga chiqish, kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini Qo'mita majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash uchun mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berish;

Taqdim etilgan hujjatlar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish va Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish;

Audit qo'mitasi majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish.

69. Audit qo'mitasi a'zolarining majburiyatlari quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, mazkur Nizom, bank ustavi va ichki hujjatlari asosida o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish hamda o'z faoliyatini sidqidildan olib borish;

Ichki audit xizmati ishini, shu jumladan, uning hisobotlarini tahlil qilish va samaradorlikni baholash orqali nazorat qilish;

moliyaviy hisobot, shu jumladan, konsolidatsiyalashgan hisobotning buxgalteriya standartlari va hisob siyosatiga muvofiqligini tahlil va nazorat qilish;

bank aksiyadorlarining huquqlari, manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish prinsiplari asosida faoliyat yuritish;

bank siri bilan bog'liq ma'lumotlarini oshkor etmaslik hamda maxfiylik talablarini bajarish;

vakolatlari va vazifalari doirasidagi boshqa majburiyatlarini bajarish.

70. Audit qo'mitasi a'zolari Qo'mita majlisida shaxsan ishtirok etishlari shart. Agar majlisda ishtirok etish imkoniyati mavjud bo'lmasa, Qo'mita a'zosi sabablarini ko'rsatgan holda Qo'mitani bu haqda xabardor qiladi.

Audit qo'mitasi auditorlik tashkilotining so'roviga ko'ra auditorlik tekshiruvi jarayonida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar berishga hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishga majbur.

71. Audit qo'mitasi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda bankning manfaatlari ko'zlab ish tutishi hamda o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan hollarda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Qo'mita a'zolari javobgar bo'lmaydi.

IV. Tayinlovlar va mehnatga haq to'lash qo'mitasi

72. Tayinlovlar va mehnatga haq to'lash qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Tayinlovlar qo'mitasi) bank Boshqaruvi (keyingi o'rinlarda – Boshqaruv) a'zoliciga nomzodlarni o'rganish va tanlash, ushbu Boshqaruv organlarida kadrlar uzviyligini (zaxirasini) nazorat qilish va ta'minlash, ularning malakasini oshirish, Kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish va Boshqaruv a'zolari mehnatiga haq to'lash bo'yicha rag'batlantirish siyosatini joriy etish maqsadida tuziladi.

73. Tayinlovlar qo'mitasi Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanib, Kuzatuv kengashi qarori bilan tashkil etiladi.

74. Tayinlovlar qo'mitasi tarkibi (uning a'zolari va raisi) Kuzatuv kengashi tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko'pchilikning ovozi bilan saylanadi. Qo'mita tarkibi uchta yoki beshta a'zodan (Qo'mita raisi bilan birgalikda) iborat bo'lishi lozim. Kuzatuv kengashi raisi mazkur Qo'mita raisi bo'lishi mumkin emas.

75. Tayinlovlar qo'mitasiga rahbarlik qilish, faoliyatini tashkil etish va Qo'mita a'zolari o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi. Qo'mita raisining vaqtinchalik yo'qligida rais vazifasini bajarib turish a'zolaridan biriga yuklatilishi mumkin.

76. Tayinlovlar qo'mitasi o'z faoliyatida Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lib, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga, bank ustavi va mazkur Nizom qoidalariga amal qiladi.

77. Tayinlovlar qo'mitasi faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

bank Boshqaruvi uchun a'zolikka nomzodlarni tanlash va zarur hollarda almashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

bank Boshqaruviga nomzodlarni tanlashda shaffoflikni ta'minlash;


Boshqaruv a'zolari faoliyati samaradorligini baholashda va ularning mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirishda moliyaviy iqtisodiy tamoyillar asosida tashkil qilish;

Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Boshqaruv raisi bo'lishining oldini olishga doir qoidaga rioya qilinishini ta'minlash;

2023-yil 1-yanvardan boshlab Boshqaruv a'zolariga oylik ish haqi va yil yakunlari bo'yicha bir yo'la (yoki choraklik) to'lanadigan mukofot to'lovlardan tashqari har qanday qo'shimcha to'lov turlari to'lanmasligi bo'yicha yagona rag'batlantirish siyosatini nazorat qilish va ushbu qoida buzilmasligini ta'minlash;. Bunda yagona rag'batlantirish siyosati mexanizmlarini Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan berilgan ko'rsatmalari asosida va ko'rsatma kelgunga qadar amaldagi ish haqi to'lash tartibida ijro qilinishi inobatga olish;

Kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha saylangan a'zolar faoliyatini bankda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish kabi mezonlar asosida baholash;

zarur hollarda Kuzatuv kengashi a'zolari, uning qo'mitalari va Boshqaruv a'zolariga



to'lanadigan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda (yuqori turuvchi organlar va tashqi va ichki auditga) oshkor etilishini ta'minlash;

bankning Ichki nazorat xizmati rahbari va xodimlarini tayinlash, lavozimidan ozod etish, shuningdek ularning faoliyatini baholash va mukofot to'lovlari miqdori (ish haqi, bonuslar va boshqalar) to'g'risidagi qarorlar qabul qilish.

78. Tayinlovlar qo'mitasi vakolatiga quyidagi masalalarning dastlabki ko'rib chiqilishi kiradi:

bankning bozorda samarali raqobatdosh bo'lishining doimiy qobiliyatini ta'minlash maqsadida ijro organiga bo'lgan zaxira ehtiyojlari to'g'risida holatni nazorat qilish, shuningdek, rahbar xodimlarning uzviyligi (zaxira) rejalari bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

Kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlarni qidirishda, ko'rib chiqishda va ularni taqdim etishda ishtirok etish va tavsiyalar berish;

Kuzatuv kengashining soni va tarkibini ko'rib chiqish va har qanday o'zgartirishlar kiritilishi bo'yicha Kuzatuv kengashiga takliflar berish;

Mehnat faoliyati, kasbiy a'zolari yoki majburiyatlari o'zgargan yoki boshqa aksiyadorlik kompaniyasining kengash yoxud qo'mita a'zosi lavozimiga saylanmoqchi bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Kuzatuv kengashida lavozimni egallashni davom ettirishi qonunchilik talablariga muvofiqligini ko'rib chiqish;

Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari faoliyati natijalarini tegishli tarzda inobatga olgan holda, Kuzatuv kengashi ishida qanchalik foydali bo'lishi, Kuzatuv kengashi ularning malakasi, bilimi va tajribasiga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, Kuzatuv kengashiga mustaqil a'zolari ular vakolati muddati yakunida qayta tayinlash bo'yicha tavsiyanomalar kiritadi;

Kuzatuv kengashining biron-bir qo'mitasiga nomzodni tayinlash bo'yicha tavsiyalar tayyorlashda nomzodning malakasi va ushbu Qo'mita talablariga muvofiqligini baholash;

Kuzatuv kengashi va uning Qo'mitalari faoliyati samaradorligini har yillik baholash o'tkazilishini ta'minlash;

Kuzatuv kengashining har bir a'zosi faoliyatini baholash natijalaridan kelib chiqib, Kuzatuv kengashiga tegishli takliflar bilan (takliflar mavjud bo'lganda) yozma hisobotlar taqdim etish;

Kuzatuv kengashi a'zolarining uzviyligi (zaxira) rejalari yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

Boshqaruv raisi lavozimiga davomiylikni (ketma-ketlikni) rejalashtirish monitoringini olib borish, faoliyatini ko'rib chiqish, davomiylik rejalari ishlab chiqish;

Boshqaruv raisi va a'zolari nomzodlarini ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

Boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilayotgan mehnat shartnomalarini ko'rib chiqish, mazmuni bo'yicha muzokaralar olib borish va Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

Kuzatuv kengashi raisi, Boshqaruv raisi va a'zolarining o'z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq xarajatlarini qoplash siyosatini kelishish;

Respublikaning bank tizimida rahbar xodimlarga haq to'lash yo'nalishidagi

tendensiyalarni inobatga olgan holda, har qanday jiddiy o'zgarishlarni o'rganish, bankda ijro organi a'zolariga amaldagi mehnatga haq to'lash siyosatining maqsadga muvofiqligini baholash, ularga maqbul ish haqi tizimini joriy etish bo'yicha Kuzatuv kengashiga tegishli tavsiyalar berish;

Kuzatuv kengashi a'zolari va rahbariyatiga haq to'lash siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu jumladan, kompensatsiya paketlarining umumiy miqdorini bank tomonidan to'g'ri oshkor etilishini nazorat qilish;

bank tomonidan Boshqaruv raisi va a'zolari uchun ish haqi va imtiyozlarning umumiy siyosatini Kuzatuv kengashi bilan kelishish. Bunda ish faoliyati natijalarini yaxshilash va bank muvaffaqiyatiga qo'shgan individual hissasi uchun adolatli haq to'lash uchun munosib rag'batlantirish maqsadida yilda kamida bir marta:

Boshqaruv raisi va a'zolarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq korporativ maqsad va vazifalarni ko'rib chiqish, ushbu maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda uning ishini samaradorligini baholash;

ushbu baholash asosida ularning ish haqi darajasi bo'yicha tavsiyalar berish;

Kuzatuv kengashining ko'rsatmalariga muvofiq o'z vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqish, tayyorlash va Kuzatuv kengashiga taqdim etish.

79. Tayinlovlar qo'mitasi a'zolariga haq to'lash Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq belgilanadi va to'lanadi.

80. Tayinlovlar qo'mitasining a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

Qo'mitaning har bir majlisida qatnashish va Qo'mita majlislarining kun tartibiga kiritilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish;

Qo'mita majlisida shaxsan hozir bo'lish imkoniyati bo'lmagan taqdirda Qo'mita majlislarida va (yoki) uning qarorlarini qabul qilishda mazkur Nizomda ko'zda tutilgan boshqa usullarda qatnashish;

Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilayotgan har qanday masala yuzasidan to'laqonli, asosli fikrni shakllantirish uchun zarur va yetarli hajmda Qo'mitalar hamda Boshqaruvdan ma'lumot va hujjatlarni so'rash;

Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilayotgan har qanday masala yuzasidan o'zining alohida (maxsus) fikrini bildirish va o'zining alohida fikrini Qo'mita majlisi bayonnomasida aks ettirishni talab qilish;

Qo'mita tomonidan uning vazifalari va vakolatlariga taalluqli masalalarni ko'rib chiqilishi bo'yicha tashabbus bilan chiqish;

Tayinlovlar qo'mitasi a'zolari Qo'mita majlislarida ovozli video yoki telefon aloqasi orqali yoki boshqa ajratilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda ishtirok etish huquqiga ega. Bunda ishtirok etishning ushbu usullaridan har biri shaxsni shubhasiz aniqlash imkonini berishi, Qo'mitaning har bir qarorini qabul qilishda Qo'mita a'zosi tomonidan berilgan ovozni aniq qayd etilishi, Qo'mita a'zosiga majlis kun tartibidagi har qanday masala bo'yicha o'z fikrini bildirishi va real vaqt rejimida kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish imkonini berishi, shuningdek tijorat, xizmat, bank va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarning saqlanishini ta'minlashi lozim;

Qo'mita majlisida shaxsan yoki ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan

ishtirok etishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Qo'mita a'zosi Qo'mita raisi bilan kelishilgan holda Qo'mitaning tegishli majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha oldindan yozma ravishda o'z fikrini bildirish huquqiga ega.

Tayinlovlar qo'mitasi a'zosi Qo'mitaning tavsiyaviy qarorlarini tayyorlash jarayonida Qo'mita majlisi kun tartibidagi muhokama qilinayotgan masala bo'yicha qarorni qabul qilishdan shaxsiy manfaatdor bo'lgan holatda qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqiga ega emas.

81. Tayinlovlar qo'mitasining a'zosi quyidagi majburiyatlarga ega:

Qo'mita a'zosi sifatida ish faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli vaqt ajratish;

Qo'mita majlislarida qatnashish va kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish;

Qo'mita majlisi bilan bog'liq materiallar, hujjatlar bilan tanishish va ularni o'rganish;

Qo'mitaning kun tartibidagi muhokama qilinayotgan masala bo'yicha muayyan qaror qabul qilinishida ehtimoliy shaxsiy manfaatdorlik to'g'risida zudlik bilan Qo'mitaga xabar berish;

o'z vazifalarini bajarishda Bankka zarar yoki boshqa ziyon etkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek bunday harakatlar va bayonotlardan tiyilish.

82. Tayinlovlar qo'mitasi raisi Qo'mita faoliyatiga rahbarlik qilish va uning Kuzatuv kengashi bilan o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish funksiyalarini bajaradi.

83. Tayinlovlar qo'mitasi raisining vakolatlari quyidagilardan iborat:

Qo'mitaga umumiy rahbarlik qilish va Qo'mita ishini tashkil etish;

Qo'mita majlisini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

Qo'mita majlislarining kun tartibini tasdiqlash;

Qo'mita majlislarini chaqirish, ularda raislik qilish va masalalar muhokamasini tashkil etish;

Qo'mita majlisining kun tartibiga kiritilgan masalalarning ko'rib chiqilishi natijalarida ishlab chiqilgan tavsiyalarni Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

Kuzatuv kengashi qarorlari bilan belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

84. Tayinlovlar qo'mitasi kotibi Boshqaruv raisi buyrug'i bilan bank xodimlari orasidan tayinlanadi.

85. Tayinlovlar qo'mitasi kotibi Qo'mita majlislarining kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish va qarorlarni qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas.

86. Tayinlovlar qo'mitasi kotibi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Qo'mita majlisi to'g'risida uning a'zolarini va ushbu majlisga taklif etilgan shaxslarni xabardor qiladi;

Qo'mita majlislarining kun tartibiga doir masalalar bo'yicha materiallarni shakllantiradi va Qo'mita a'zolariga hamda Qo'mita raisi ruxsati bilan majlisga taklif etilgan boshqa shaxslarga o'z vaqtida taqdim etadi;

Qo'mita majlisini o'tkazishni tashkil etadi;

Qo'mita majlislari bayonnomalarini tuzadi, bayonnomalarining asl nusxasini, shuningdek ushbu majlislarning kun tartibidagi masalalar bo'yicha materiallarning nazorat nusxalarini belgilangan tartibda saqlaydi;

vakolatli shaxslarning so'rovi bo'yicha Qo'mita raisining dastlabki roziligi bilan Qo'mita majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalarni taqdim etadi;

mazkur Nizomga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

87. Tayinlovlar qo'mitasi kotibi ishda vaqtincha yo'q bo'lgan holatda, uning ishda yo'q bo'lgan davri mobaynida Qo'mita kotibi funksiyalarini bajarish Boshqaruv raisining buyrug'i bilan Bankning boshqa xodimiga yuklatiladi.

88. Tayinlovlar qo'mitasi majlislari zaruratga qarab yoki Qo'mita majlislarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

89. Tayinlovlar qo'mitasi majlisi Qo'mita raisining yoki u bo'lmagan taqdirda uning vakolatini bajarish huquqiga ega bo'lgan shaxsning tashabbusi bilan, shuningdek, Kuzatuv kengashi yoki Qo'mitaning har qanday a'zosining talabiga binoan chaqiriladi.

90. Tayinlovlar qo'mitasi majlisi kun tartibining barcha masalalari bo'yicha materiallarni tayyorlash Qo'mita kotibi tomonidan ta'minlanadi. Qo'mita kotibi ushbu materiallarni Qo'mita raisi va a'zolariga, shuningdek majlisga taklif etilgan shaxslarga elektron pochta orqali o'z vaqtida, ya'ni majlis o'tkazish sanasidan kamida uch ish kuni oldin tarqatilishi uchun mas'ul hisoblanadi. Qo'mita a'zolarining iltimosiga ko'ra Qo'mita majlisi materiallari ularga qog'oz shaklida taqdim etilishi mumkin.

91. Tayinlovlar qo'mitasi majlisini chaqirish, tayyorlash va o'tkazishda quyidagilar taqiqlanadi:

Qo'mitaning alohida a'zolariga yoki majlisning alohida ishtirokchilariga ma'lumotlarni tanlab taqdim etish;

Qo'mita a'zolariga bankning ichki hujjatlari normalari va Kuzatuv kengashi qarorlarini buzgan holda insayder ma'lumotlar, shuningdek, bank, tijorat yoki xizmat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni taqdim etish.

92. Zarur hollarda Tayinlovlar qo'mitasi majlislariga Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari, Boshqaruv raisi yoki a'zolari bankning boshqa mansabdor shaxslari taklif qilinishi mumkin.

93. Tayinlovlar qo'mitasi majlislarini o'tkazish Qo'mita faoliyatining asosiy shakli hisoblanadi. Istisno holatlarda Qo'mita qarorlari majlislar kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr bildirish yo'li bilan ham qabul qilinishi mumkin. Qo'mita tomonidan sirtidan ovoz berish yo'li bilan qarorlar qabul qilish imkoniyati istisno holatlarda Qo'mita raisi tomonidan Qo'mita a'zolari bilan kelishilgan holda ko'rib chiqilayotgan masalalarning murakkablik darajasini va ularni tezda ko'rib chiqish zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

94. Kun tartibidagi masalalar va ular bo'yicha ovoz berish natijalari yuzasidan Tayinlovlar qo'mitasi a'zolarining umumiy soniga nisbatan Qo'mita raisi tomonidan belgilangan muddatda olingan sirtidan ovoz berish byulletenlarini (qog'oz yoki elektron shaklda) inobatga olgan holda sirtidan ovoz berish yo'li bilan Qo'mita qarori qabul qilingan hisoblanadi. Byulletenlarni topshirish uchun belgilangan muddat o'tgandan so'ng kelib tushgan sirtidan ovoz berish byulletenlari ovoz berish kvorumi va ovoz berish natijalarini hisoblashda inobatga olinmaydi.

95. Tayinlovlar qo'mitasi uchta a'zodan iborat bo'lgan holatda Qo'mita majlisida barcha a'zolari ishtirok etganda majlis vakolatli hisoblanadi. Qo'mitaning majlisida qarorlar umumiy

sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Tayinlovlar qo'mitasi beshta a'zodan iborat bo'lgan holatda Qo'mita majlisida kamida uchta a'zosi ishtirok etganda majlis vakolatli hisoblanadi. Bunda Qo'mita raisi ishtirok etishi shart. Qo'mitaning majlisida qarorlar Qo'mita a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

96. Tayinlovlar qo'mitasining majlisida masalalar hal etilayotganda Qo'mitaning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Ovozlar teng bo'lganda Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

97. Tayinlovlar qo'mitasi majlisida qabul qilingan qarorlar majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma Qo'mita kotibi tomonidan tuziladi va ushbu majlis o'tkazilgan sanadan boshlab uch ish kuni ichida majlisda raislik qilgan shaxs va Qo'mita kotibi tomonidan imzolanadi.

Tayinlovlar qo'mitasi majlisi bayonnomasi ushbu majlisda ishtirok etgan Qo'mitaning boshqa a'zolari tomonidan ham (ularning ushbu bayonnoma bilan tanishgani va bayonnomaga roziligini tasdiqlash maqsadida) imzolanishi lozim. Qo'mita majlisi bayonnomasining Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanishi faksimil yoki elektron (skanerlangan nusxasini taqdim etish orqali) aloqadan foydalangan holda, shuningdek ushbu Qo'mitaning navbatdagi majlisida amalga oshirilishi mumkin. Qo'mita a'zolaridan birortasining vizasi yo'qligi bayonnomaning haqiqiylikiga ta'sir qilmaydi.

98. Tayinlovlar qo'mitasining qaroriga rozilik bildirmagan Qo'mita a'zosining alohida fikri majlis bayonnomasida qayd etiladi.

99. Tayinlovlar qo'mitasi majlisining bayonnomasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

majlisning sanasi, vaqti va o'tkazilgan joyi;

majlisda ishtirok etgan Qo'mita a'zolari va hozir bo'lgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovozga qo'yilgan masalalarning tahriri;

majlis ishtirokchilarining ovoz berish natijalari ("ha" yoki "qarshi" ovoz bergan yoxud "betaraf" bo'lgan ishtirokchilarni aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda);

Qo'mitaning qabul qilingan qarorlarining tahriri;

ushbu Qo'mita qarori bo'yicha boshqa ma'lumotlar.

100. Tayinlovlar qo'mitasi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida Kuzatuv kengashiga taqdim etish uchun mo'ljallangan va ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha Qo'mitaning yozma tavsiyalari rasmiylashtiriladi. Qo'mitaning bunday tavsiyalari ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha Qo'mita fikrini aks ettiradi hamda xolis va asosli bo'lishi lozim.

101. Tayinlovlar qo'mitasi majlislari bayonnomalarining asl nusxalari Qo'mita kotibida saqlanadi.

102. Tayinlovlar qo'mitasining saylangan tarkibi vakolatlari muddati Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilanadi. Kuzatuv kengashi Qo'mita a'zolarini saylash to'g'risidagi qarori bilan Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari muddatini belgilash huquqiga ega.

103. Saylangan Tayinlovlar qo‘mitasi a‘zolarining vakolatlari muddati Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanmagan bo‘lsa Qo‘mita a‘zolarining vakolatlari muddati Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylangunga qadar bo‘lgan davr hisoblanadi barcha yoki alohida Qo‘mita a‘zolarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish hollari bundan mustasno.

104. Tayinlovlar qo‘mitasining barcha yoki alohida a‘zolari vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatilishi mumkin:

Qo‘mita a‘zosining o‘z xohishiga ko‘ra;

Qo‘mitaning har bir a‘zosi, shu jumladan, uning raisi Qo‘mita kotibi orqali Kuzatuv kengashi raisi va Qo‘mita raisiga vakolatlarini to‘xtatish sanasidan bir kalendar oy oldin o‘z vakolatlarini to‘xtatish to‘g‘risida yozma ariza yuborishi.

105. Kuzatuv kengashi Tayinlovlar qo‘mitasining yangi a‘zosini saylash yoki a‘zolar sonini kamaytirish to‘g‘risida qarorni mazkur Nizomda Qo‘mita a‘zolarining eng kam soni bo‘yicha bo‘lgan talabga rioya etgan holda qabul qiladi.

106. Kuzatuv kengashi istalgan vaqtda asoslarni ko‘rsatmagan holda Tayinlovlar qo‘mitasining har qanday a‘zosini vakolatlarini tugatish huquqiga ega.

107. Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylansa amaldagi Tayinlovlar qo‘mitasi a‘zolarining vakolatlari tugatiladi. Ushbu holatda Kuzatuv kengashi Qo‘mitaning yangi tarkibini o‘zining birinchi majlisida saylaydi.

108. Tayinlovlar qo‘mitasining barcha yoki alohida a‘zolarining vakolatlari tugatilishi Kuzatuv kengashining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

109. Tayinlovlar qo‘mitasi kotibi Qo‘mita a‘zosining o‘z xohishiga ko‘ra vakolatlarini tugatish to‘g‘risidagi yozma arizasini Kuzatuv kengashi raisi va Qo‘mita raisiga o‘z vaqtida topshirilishi uchun mas‘ul hisoblanadi.

110. Tayinlovlar qo‘mitasi muntazam ravishda Kuzatuv kengashiga o‘z faoliyati, xulosalari, takliflari va tavsiyalari hamda Kuzatuv kengashi talab qilishi mumkin bo‘lgan boshqa masalalar to‘g‘risida hisobotlar taqdim etadi. Yuqoridagi masalalar bo‘yicha Qo‘mita raisi yoki a‘zosi tomonidan og‘zaki tarzda ma‘lumot berilishi ham mumkin.

111. Tayinlovlar qo‘mitasining ish rejasida uning faoliyati va vazifalarini bajarish, shuningdek, a‘zolarining Qo‘mita majlislarida ishtirok etish davriyligi va faolligi to‘g‘risida hisobotni majburiy ravishda tayyorlash ko‘zda tutilishi lozim. Qo‘mitaning bunday hisoboti bankning yillik hisobotiga kiritiladi.

V. Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi

112. Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi (keyingi o‘rinda – Etika qo‘mitasi) Kuzatuv kengashining a‘zolaridan 3 (uch) kishidan iborat tarkibda tashkil etiladi. Qo‘mita tarkibiga kamida bir nafar Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zosi kiritilishi shart.

113. Etika qo‘mitasining raisi va a‘zolari Kuzatuv kengashi tomonidan Kuzatuv kengashi a‘zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko‘pchilikning ovozi bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi raisi Qo‘mitaning raisi bo‘lishi mumkin emas.

114. Etika qo‘mitasining tarkibiga saylangan Kuzatuv kengashi a‘zolari cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

115. Etika qo‘mitasiga rahbarlik qilish, faoliyatini tashkil etish va qo‘mita a‘zolari

o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi.

116. Bankning Komplayens nazorat departamenti direktori o'rinbosari Etika qo'mitasining kotibi hisoblanadi.

117. Etika qo'mitasining vazifalari quyidagilardan iborat:

Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchiligi va korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturlariga muvofiq bankning tegishli chora-tadbirlar dasturi, siyosati va ichki hujjatlarini ishlab chiqish;

bankda korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillariga va bank jarayonlariga rioya etilishini ta'minlash choralari ta'minlash;

bankning barcha faoliyat yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish hamda ichki nazoratni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish va barham berish;

bankning mansabdor xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik va bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

bankda komplayens madaniyatini va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

bankda muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat faoliyatini monitoring va tahlil qilish hamda uning samaradorlik va natijadorlik ko'rsatkichlarini baholash;

bankning mansabdor xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;

bank faoliyatining shaffofligi va ma'lumotlarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilinishi yetarli darajada va aniq ekanligini ko'rib chiqish;

komplayens nazorat tizimining ishlashini qo'llab quvvatlash;

har chorakda kamida bir marta departament faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotlarni tinglash va muhokama qilish;

komplayens nazorat yo'nalishi bo'yicha ichki hujjatlar va siyosatlarni ishlab chiqishda ko'maklashish, ularni tasdiqlashda bunday hujjatlarning xalqaro standartlar yoki ilg'or tajribalarga muvofiqligi yo'nalishida o'zaro hamkorlik qilish;

Komplayens nazorat departamenti direktori lavozimga tayinlash yoki lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun Bank Kengashiga tavsiyalar berish;

Komplayens nazorat departamenti xodimlari faoliyatini baholaydi va ish haqi to'lovlarining (ish haqi koeffitsiyenti, mukofotlar va boshqalar) miqdorini belgilaydi;

Komplayens nazorat departamentiga komplayens yo'nalishi bo'yicha topshiriqlar beradi va natijalarini Kuzatuv kengashiga taqdim etadi;

bankning yillik hisoboti va boshqa hujjatlariga kiritish uchun qo'mita faoliyati natijalari to'g'risida hisobot tayyorlash va taqdim etish;

Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

118. Etika qo'mitasi majlislari tasdiqlangan jadvalga muvofiq yoki zaruratga qarab Qo'mita raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra Qo'mita a'zolarining talabiga ko'ra, shuningdek, bank Boshqaruvi raisining yozma talabiga ko'ra o'tkaziladi.

119. Etika qo'mitasi to'liq tarkibda ishtirok etganda majlis vakolatli hisoblanadi. Qo'mitaning qarorlari ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

120. Etika qo'mitasining majlisida masalalar hal etilayotganda qo'mitaning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Ovozlar teng kelgan taqdirda, Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qo'mitaning qaroriga rozilik bildirmagan Qo'mita a'zosi o'zining fikrini majlis bayonnomasida qayd ettirib qo'yish huquqiga ega.

121. Etika qo'mitasi a'zolarining shaxsan ishtirokida yoki aloqa tarmoqlaridan foydalanish yo'li bilan o'z majlislarini o'tkazib turishi lozim. Qo'mita bank Boshqaruvi a'zolarini va boshqa rahbar xodimlarni qo'mita majlislariga qatnashish uchun taklif qilishi, shuningdek zarur bo'lganda ulardan axborot talab qilishi mumkin.

122. Etika qo'mitasi a'zolari muayyan masalaning kechiktirilmay hal etilishini talab qiladigan qoida buzilishlar aniqlangan taqdirda qo'mitaning shoshilinch majlisining chaqirilishini talab qilishlari mumkin.

123. Etika qo'mitasining raisi qo'mita majlisidagi barcha ishtirokchilarga uni lozim darajada o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va unda olib chiqilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Qo'mita a'zolari qo'mita majlislarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish hamda ularda ishtirok etish uchun yetarli darajada vaqt ajratishlari lozim.

124. Etika qo'mitasining qarori Qo'mita majlisining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnoma Qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va qo'mita raisi, kotib hamda qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi.

125. Etika qo'mitasi majlislarini o'tkazish Qo'mita faoliyatining asosiy shakli hisoblanadi. Istisno holatlarda Qo'mita qarorlari majlislar kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr bildirish yo'li bilan ham qabul qilinishi mumkin. Qo'mita tomonidan sirtidan ovoz berish yo'li bilan qarorlar qabul qilish imkoniyati istisno holatlarda Qo'mita raisi tomonidan Qo'mita a'zolari bilan kelishilgan holda ko'rib chiqilayotgan masalalarning murakkablik darajasini va ularni tezda ko'rib chiqish zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

126. Kun tartibidagi masalalar va ular bo'yicha ovoz berish natijalari yuzasidan Etika qo'mitasi a'zolarining umumiy soniga nisbatan Qo'mita raisi tomonidan belgilangan muddatda olingan sirtidan ovoz berish byulletenlarini (qog'oz yoki elektron shaklda) inobatga olgan holda sirtidan ovoz berish yo'li bilan Qo'mita qarori qabul qilingan hisoblanadi. Byulletenlarni topshirish uchun belgilangan muddat o'tgandan so'ng kelib tushgan sirtidan ovoz berish byulletenlari ovoz berish kvorumi va ovoz berish natijalarini hisoblashda inobatga olinmaydi.

127. Etika qo'mitasining raisi:

Qo'mitaning ishini tashkil etadi;

Qo'mita majlislarida bayonnoma yuritilishini nazorat etadi;

mazkur Nizomda va bank ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

128. Etika qo'mitasining kotibi:

Qo'mita majislari bayonnomalarini yuritadi va rasmiylashtiradi;

Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun kun tartibidagi masalalar bo'yicha

materiallarni tayyorlaydi va taqdim qiladi;

Qo'mitaning qarorlari, xulosalari va bayonnomalari nusxalarini Kuzatuv kengashiga va bank Boshqaruviga yetkazadi.

129. Etika qo'mitasi vakolati doirasida qabul qilingan qarorlar bank Boshqaruvi va bankning boshqa mansabdor shaxslari tomonidan ijro etilishi majburiydir. Ushbu qaror(lar)da ko'rsatib o'tilgan mansabdor shaxslar qaror(lar)ning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash bo'yicha shaxsan javobgardirlar.

Etika qo'mitasi o'mita qarorlari ijrosini nazorat qilish Qo'mita raisi tomonidan amalga oshiriladi.

130. Etika qo'mitasi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

bank Boshqaruvidan va bankning boshqa mansabdor shaxslaridan o'zining Qo'mita a'zoli faoliyati uchun kerakli barcha hujjatlarni va materiallarni taqdim etishni talab qilish;

agar Bankda korrupsion yoki tizimli firibgarlik harakatlari aniqlansa, bank Boshqaruvi va Kuzatuv kengashining majlisi chaqirilishini talab qilish;

bankning tarkibiy bo'linmalari xodimlari, shu jumladan rahbarlaridan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha izohlar talab qilish;

aybdor xodimlarni intizomiy, mulkiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish masalalarini bank rahbariyatga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;

bankning dastlabki buxgalteriya, moliya va boshqa hujjatlaridan korrupsiya alomatlarini oldini olish maqsadida foydalanish;

Qo'mita vakolatlari doirasidagi qaror va topshiriqlarni bajarish, qo'mita majlislarida ishtirok etish maqsadida zarur bo'lgan holatlarda Qo'mita raisi qarori bilan bankning rahbar shaxslarini, Kuzatuv kengashining boshqa a'zolarini taklif etish;

Qo'mita fikriga ko'ra masalani chuqurroq o'rganilishi zarur bo'lsa, Qo'mita vakolatlariga tegishli bo'lgan masala bo'yicha o'z tashabbusiga ko'ra Kuzatuv kengashining boshqa Qo'mitalarni fikrini so'rash;

Qo'mita majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan so'zga chiqish, kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini Qo'mita majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash uchun mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berish;

taqdim etilgan hujjatlar asosida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish va qo'mita muhokamasiga kiritish;

Qo'mita majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish.

131. Etika qo'mitasi a'zolarining majburiyatlari:

Qo'mita ishida qatnashish va majlislarida ishtirok etish;

mazkur Nizom bilan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish hamda o'z faoliyatini vijdonan olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasidagi islohotlarni kuzatib borish;

bank aksiyadorlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish tamoyillari asosida faoliyat yuritish;

bank siri, tijorat va xizmat sirlarini oshkor etmaslik hamda maxfiylik talablarini bajarish.

132. Bankning Komplayens nazorati departamenti korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni yoki korrupsiya holatlarini o'z vaqtida oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish va ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rilgan choralar hamda korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelishi ehtimolini prognoz qilish, baholash va kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli Qo'mitaga har chorakda hisobot taqdim etadi.

133. Bank faoliyatida korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni yoki korrupsiya holatlarini o'z vaqtida oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi doirasida bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan bo'lib, Kuzatuv kengashi va Etika qo'mitasi oldida hisobdor bo'lgan bankning Komplayens nazorati departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

134. Etika qo'mitasining a'zolari Qo'mita majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa sabablarini ko'rsatgan holda Qo'mitani bu haqda xabardor qiladi.

135. Etika qo'mitasining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda bankning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

136. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Etika qo'mitasining a'zolari javobgar bo'lmaydi.

137. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan mas'ul shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

VI. Yakunlovchi qoidalar

138. Mazkur Nizom bank Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangan kundan kuchga kiradi hamda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uni bekor qilish Kuzatuv kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

139. Qo'mitalar faoliyatining samaradorligini nazorat qilish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

140. Qo'mitalar a'zolarining rag'batlantirilishi Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq belgilanadi.

141. Mazkur Nizom Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangan kundan amalga kiritiladi va quyidagilar:

ATB "Qishloq qurilish bank" Kuzatuv kengashining 2022-yil 23-sentabrdagi 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan ATB "Qishloq qurilish bank" Audit qo'mitasi to'g'risida Nizom (392-son bilan ro'yxatga olingan);

ATB "Qishloq qurilish bank" Kuzatuv kengashining 2020-yil 30-yanvardagi 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan ATB "Qishloq qurilish bank"da Bank risklarini nazorat qilish qo'mitasi to'g'risidagi Nizom (19-son bilan ro'yxatga olingan);

ATB "Qishloq qurilish bank" Kuzatuv kengashining 2022-yil 12-noyabrda 16-sonli qarori bilan tasdiqlangan ATB "Qishloq qurilish bank" Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurash va etika qo'mitasi to'g'risida Nizom (415-son bilan ro'yxatga olingan) hamda Tayinlovlar va mehnatga haq to'lash qo'mitasi to'g'risida Nizom (414-son bilan ro'yxatga olingan) va unga kiritilgan o'zgartirish hamda qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

Korporativ boshqaruv xizmati
yetakchi menejeri



Sh. Maxammadov

Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti
direktori



J. Yusupov

Risk menejment departamenti direktori
birinchi o'rinbosari



K. Karimov

Lingvist



A. Ravshanov

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig'i



S. Raxmatullayev

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2024-yil 25-mart

Toshkent shahri

142 -son

3. Ichki me’yoriy hujjat
loyihasining turi:

Nizom

2. Ichki me’yoriy hujjat
loyihasining nomi:

- **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv
kengashi qo‘mitalari to‘g‘risida Nizom**

3. Lingvistik ekspertizani
o‘tkazuvchi:

- **A.Ravshanov**

4. Lingvistik ekspertiza
o‘tkazilgan sana:

- **2024-yil 25-mart**

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Ekspert:



A. Ravshanov

2024-yil 26-mart

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 36

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan ishlab chiqilgan **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashi qo'mitalari to'g'risida Nizom**” loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Mazkur ichki me'yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro'yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo'limi “Tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o'zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo'lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o'tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillar aniqlanmadi.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig'i



S.Raxmatullayev